

AMIR TEMUR VA TEMURIYLARNING SHAHRISABZ ME'MORCHILIGIGA QO'SHGAN HISSASI XUSUSIDA

Irgashov Xusniddin Nuridin o'g'li
Nurmamatov Odilbek Sherali o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Movarounnahrda XIV-XV asrlarda hukmronlik qilgan buyuk sarkarda Amir Temur va uning vorislari tomonidan mintaqadagi bir qancha shaharlarda, shu jumladan Shahrisabz shahrida qurilgan me'moriy obidalarning ayrim xususiyatlari haqida so'z boradi. Qolaversa buyuk sohibqironning o'z otameros mulki bo'lmish Shahrisabz me'morchiligiga qo'shgan ulkan hissasi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit So'Zlar: *Oqsaroy, Hirot, kesh, "chor" me'moriy uslubi, Hindiston, Isfahon, Damashq, Xorazmlik ustalar, Abdurazzoq Samarqandiy, Taxtaqoracha, turizm, Samarqand, Dorus-Saodat.*

KIRISH

Tarixdan barchamizga ma'lumki Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahrda hukmronlik qilgan deyarli barcha sulolalar, yoxud ushbu sulolaning yirik vakillari o'zlaridan ma'lum darajadagi yodgorlik qoldirishni ixtiyor etganlar. Ushbu yodgorliklar asosan madrasa, masjid, xonaqoh, karvonsaroy, tim, maqbara, hovuz va hokazo shaklida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan Ismoil Somoniy maqbarasi deymizmi, Amir Temur tashabbusi bilan qad ko'targan Oqsaroy inshooti, Abdullaxon II ning buyrug'i bilan qurilgan bir qator inshootlar, xususan, Modarixon madrasasi, Abdullaxon timi, Abdullaxon madrasasi, Toshkent va Buxoroda bunyod etilgan Ko'kaldosh madrasalari ham aynan Abdullaxon II ning homiyliги ostida hamda Buxoro xonligida ko'kaldosh vazifasida faoliyat yuritgan Qulbobo ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan. Ushbu inshootlar tarixning turli davrlarida va turli xil tarixiy sharoitlarda bunyod etilgan. Yuqorida nomlari qayd etilgan me'moriy obidalarning ba'zilari ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, ba'zilari esa ibodat maskanlari sifatida xalqqa xizmat qilgan. Movarounnahrda hukmronlik qilgan sulolalarning deyarli barchasi mintaqa me'morchiligiga o'zlarining ma'lum darajada hissa qo'shgan. Quyida Amir Temur va temuriylar sulolasining Movarounnahrning yirik shaharlaridan biri hisoblangan Shahrisabz shahrining me'morchilik madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi xususida so'z boradi.

ASOSIY QISM

Amir Temur, umuman temuriylar davrida Movarounnahrda juda ko'plab me'moriy obidalar barpo etildi. Ularning eng yiriklari Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda bunyod etildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Shahrisabz shahrida aynan temuriylar davrida qurilgan me'moriy inshootlarning ba'zilari saqlanib qolgan. "Uni "Shahrisabz" deydilar, yilning aksari faslida uning yeri ko'm-ko'k (maysazordir), ayniqsa bahor faslida, uning hovli, tom va ko'chalari yam-yashil bo'ladi. Keshning qadimiy shahrbandi bo'lgan, lekin u buzilib ketgan edi. Hazrat Amir Sohibqiron, - Alloh uning shuxratini yorqin etsin, — yetti yuz saksoninchi (1378— 1379) yili uning shahrbandini qayta tikladi va o'sha yilning o'zidayoq nihoyasiga yetkazdi. Oradan uch yil o'tib Hirot shahrini egallaganda, Hirotning shahrbandini buzdirdi va uning ustiga temir qoplangan darvozalarni Movarounnahrda jo'natdi, ularni Kesh shahrining darvozalari o'rniga qo'ndirdilar. Sohibqiron (Amir Temur) davlati ayyomiyda (Kesh shahri) juda obod bo'ldi, u yerda toshdan binolar qurdilar. Shu jumladan, Dor-us-Saodat, muhtasham bino; unga obod yerlar, qishloqlar va ma'mur mulklarni vaqf qildi. Shaxsan onhazratning o'zi uchun baland ko'shk qurdilar va u Oqsaroy deb ataladi, toshdan qurilgan imoratdir; uning ayvoni bir necha farsang (masofadan) ko'zga tashlanadi. Bulardan tashqari, shaharda va Kesh shahriga qarashli atroflarida bir qismi onhazratning o'ziga, ba'zilari amirlar va arkoni davlatga tegishli bo'lgan madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar ham bunyod etilgan[1].

Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan, shuningdek Temuriylar davrida shaharlarning ansambllarmajmuiy qurilishi keng tarqalgan, bu Shahrisabzda ham yaqqol ko'rinadi, bu yerda Dorus-Tilovat va Dorus-Saodat ansambllari ajralib turadi. DorusTilovatni sobiq mahalliy xonaqohlar maqbarasida saqlanib qolgan uchta inshoot tashkil etadi. Bu Shamsiddin Kulol va Gumbazi Seyidon maqbaralari hamda Ko'k Gumbaz jome' masjididir. Shamsiddin Kulol maqbarasi eng birinchi qurilgan Shayx 1370 yilda vafot etgan bo'lib, uning qabri izzat-ehtirom qilingan. Uning yonida Gumbazi Seyidon-Sayidlar gumbazi nomli Ulug'bek avlodlarning maqbarasi qurilgan [2].

Shahrisabszga otameros mulk sifatida qaragan Sohibqiron bu yerda bir qancha me'moriy obidalar qurdirdi. Ulardan eng yirigi shubhasiz Oqsaroy me'moriy inshooti hisoblanadi. Oqsaroy buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan 1380-1404-yillar oralig'ida bunyod etilgan. Inshoot o'sha davrda Sharq me'morchiligda keng foydalanilgan "chor" uslubida bunyod etilgan. Obidaning o'ziga xos tomonlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Amir Temur bir qancha hududlarga yurish qilib, barcha hududlarni birin-ketin egallar ekan mamlakatning markaziy qismi, ya'ni Movarounnahrni obodonlashtirishni maqsad qiladi. Shu maqsadda bosib olingan o'lkalardan, jumladan Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqdan ilm-fan va madaniyat arboblari bilan birga ko'plab mohir usta va hunarmandlarni ham Movarounnahrda olib keladi. Ushbu mohir usta va hunarmandlar ham bevosita

mamlakatda olib borilayotgan ulkan obodonlashtirish ishlariga jalb qilinadi. Xususan, Oqsaroyning qurilishida ham eronlik ustalar ishtirok etgan. Bunga dalil sifatida Oqsaroyning bosh peshtoqida eronlik koshinpaz usta Muhammad Yusuf Tabriziyning nomi ikki joyda zik qilinganini ko'rishimiz mumkin. Yoki Abdurazzoq Samarqandiyning "Temur ishga yaroqli bo'lganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnahrda ko'chirish uchun buyruq berdi. Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurishdi, hozir u Oqsaroy nomi bilan mashhur" deya qayd etgan ma'lumotlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Oqsaroyning avvalgi holati to'g'risida faqat yozma manbalarga qarab fikr yuritish mumkin. Saroy qurilishida xorazmlik ustalar va eronlik ustalar qatori, mahalliy va boshqa davlatlardan kelgan ustalar ham qatnashgan. Yozma manbalarga ko'ra, Oqsaroy turar joy va jamoat binosi sifatida qurilib, xonalar hovli atrofida joylashgan. Bobur ma'lumotlariga ko'ra, hovli o'rtasida hovuz, to'rida gumbazli katta xona — devonxona, yonlarida maslahatchilar uchun kichik xona, hashamatli ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram va amirning xonasi joylashgan. Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — tom tepasiga ishlangan hrvuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo'rg'oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan. 1707 yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtog'i ostida toj kiyib, taxtga o'tirganligi peshtoqning o'sha paytda butun ekanligidan darak beradi [3].

Vaqt o'tishi bilan saroyning peshtoq poydevoridan boshqa qismlari vayron kilingan. Ayrim asarlarda XVI asrda Buxoro hukmdori Abdullaxon II Temurning ishlarini xalq xotirasidan o'chirib tashlash maqsadida saroyni buzishga farmon berishi to'g'risida faktlar uchraydi. Bizningcha, bu qarashlarda ham noaniqlik mavjud. Fikrimizcha Abdullaxon II Amir Temurning amalga oshirgan ishlarni xalq xotirasidan o'chirib tashlash uchun emas, balki o'zi tushib qolgan vaziyatga boshqa hech kim tushib qolishini istamaganligi uchun bu ishni qilgan bo'lsa kerak. Chunki Oqsaroy juda go'zal bo'lib, go'zallikka oshno bo'lgan Abdullaxonning dushmanga asir tushishiga bir bahya qoladi. Biroq shu faktki, Oqsaroyning ikki qismini tutashtirib turgan qismi buzilib ketgan [4].

Temuriylar davrida aynan Shahrisabzda qurilgan yana bir mashhur inshoot Dorus-Saodatmajmuasidir. Dorus-Saodat majmuasi ko'hna Shahrisabz shahrida joylashgan bo'lib, ushbu inshootning qurilishi yuqorida qayd etganimizdek, temuriylar sulolasi nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Uning qurilishi 1379-yilda boshlanib 1380-yilda yakunlagan. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu inshootning qurilishida mahalliy ustalar bilan bir qatorda xuddi Oqsaroydagi kabi Xorazmdan olib kelingan ustalar ham qatnashgan [5]. Amir Temurning maqsadi o'z ona shahrida o'ziga maqbara qurdirish edi. Bunga misol sifatida Amir Temur maqbara markazida o'zi uchun kattakon daxma qurdirganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq taqdir taqazosi bilan Amir temur Samarqand shahridagi Go'ri Amirga dafn qilinadi. Ayni paytda fikr yuritilayotgan Dorus-Saodat majmuasining qimmatli tomoni shundan iboratki, unga Sohibqironning ikkinchi o'g'li,

1376-yilda olamdan bevaqt ko'z yumgan sevimli katta o'g'li Jahongirning qabri Shahrisabzga, aynan Dorus-Saodat majmuasiga ko'chirib keltiriladi. Keyinchalik bu yerga Sohibqironning yana bir o'g'li UmarShayx Mirzo ham dafn qilingan. Bu fikrimizni manbalar asosida asoslaydigan bo'lsak, Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" sida yozilishicha, Amir Temur Shahrisabzda maxsus bino qurdirgan, unda o'z o'g'li Amirzoda Jahongir va boshqa amaldorlar hamda buzrukvorlarning daxmalari qo'yilsin, deb farmon bergan. Dorus-Saodat majmuasi qurilish jihatidan Turkistonda joylashgan va Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Ahmad Yassaviy maqbarasiga o'xshab ketadi.

XV asrda temuriylar tomonidan Shahrisabzda bunyod etilgan yana bir me'moriy inshootlardan biri Ko'k gumbaz masjididir. Ushbu inshoot temuriylar sulolasi tomonidan 1435-yilda (ba'zi manbalarda 1433-1436-yillar oralig'ida deb keltiriladi) Shahrisabz shahrida qurilgan. Temuriy hukmdor Ulug'bek Mirzo otasi Shoxrux Mirzo nomidan qurdirgan (1434-1435) ushbu inshootning peshtoq ravog'ida ularning nomlari va qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar saqlangan. Ko'k gumbaz masjidi yuqorida nomi zikr qilingan Dorus-Saodat majmuasi tarkibidagi asosiy jome masjid hisoblanadi [6].

Xulosa qilib aytganda, Shahrisabz me'morchiligi haqida so'z borar ekan albatta temuriylar sulolasining ushbu shaharda amalga oshirgan obodonchilik ishlari xususida ta'kidlab o'tishimiz shart. Sababi, Shahrisabz shahrining Movarounnahrda Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlar qatoriga qo'shilishi aynan Amir Temur va temuriylar nomi bilan bog'liq. Qolaversa bu go'zal shaharda qaysidir ma'noda temuriylardek ulkan imperiyaning tamal toshi qo'yilgan. Yurtimiz tarixiy joylarga boy, ammo Sohibqiron Amir Temur tug'ilib-o'sgan Shahrisabz shahri alohida e'tiborga molikdir. Ushbu shahar tarixiga nazar solsak, Shahrisabz –O'zbekistonning qadimiy va go'zal shaharlaridan biri bo'lib, tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan, shuningdek bu jannatmakon o'lka O'zbekistobdagi qadimiy shaharlardan biridir. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shaharga miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalarida asos solingan va bu ko'hna diyori milod boshlarida va ilk o'rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan. Bugungi kunda esa Shahrisabz shahri yurtimizda turizmning yuksak rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Xofiz Abru (1362-1431) - "Geografiya" asaridan
2. Erkin G'ulomxasanov, Nilufar Rahmatova – "Qashqadaryo turizmida Shahrisabz shahrining tutgan o'rni
3. <https://meros.uz/>

4. Hazratqul Abruyev – “Amir Temurning ikkinchi qabri, Sohibqironni chuv tushirgan me'mor, Abdullaxon II buzdirgan noyob me'morchilik namunasi yoxud Oqsaroy majmuasi” nomli maqolasi 3-b.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”
6. Zamonov Akbar Turg'unovich – “Tarix- fan olimpiadasi uchun qo'llanma”. Toshkent-2015, to'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashr. 118-b.